Xorijiy va mahalliy tajribada prognostik madaniyatni shakllantirish yondashuvlari .....	809
<i>Ziyoda Urinbayeva</i>	
The Role of Tolerance in the Professional Activities of Internal Affairs Bodies .....	813
<i>Toshpo'latov Anvar Shokir o'g'li</i>	
O'quvchilarni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda sharq mutaffakirlari merosidan foydalanish .....	818
<i>Eshquvvatov To'lqinjon Eshquvvatovich, Buronova Durdona Erkin qizi</i>	
Maktabgacha ta'limda interfaol metodlar orqali integrativ faoliyatlarni tashkil etish .....	822
<i>Kubayeva Mavluda Baxtiyor qizi</i>	
Boshlang'ich ta'lim jarayonida mantiqiy tafakkurni rivojlantirishning pedagogik-psixologik asoslari .....	826
<i>Mirzaqobilova Sarvinoz Aliqul qizi</i>	
Zamonaviy jamiyatda ekologik mediamadaniyatni shakllantirish masalalari .....	832
<i>Marziyayev Janabay Kalibayevich</i>	
Alisher Navoiyning "Mahlub ul-qulub" asari asosida o'quvchilarning axloqiy fazilatlarini shakllantirish .....	836
<i>Karamatova Dilfuza Sadinovna, Mahmudova Niginabonu Mizrof qizi, Ravshanova Mohinur O'tkir qizi</i>	
Pedagogik amaliyot jarayonida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy karyera loyihalash ko'nikmalarini shakllantirish .....	840
<i>Djalolova Sevara Xolmurodovna</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotida inklyuziv ta'limni tashkil etishda innovatsion pedagogik texnologiyalar ....	845
<i>G'ulomova Dildora Shoirvna</i>	
Rus tilini o'qitishda grammatik kompetensiyani kommunikativ metod yordamida shakllantirish: qoidalardan jonli muloqotga o'tish metodikasi .....	850
<i>Arabova Muhiba Bazarovna</i>	
Bo'lajak musiqa o'qituvchisining kasbiy kompetentligini axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida takomillashtirishning pedagogik muammo va ehtiyojlari .....	854
<i>Axrorova Munajat Mashraf qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tanqidiy tafakkur ko'nikmalarini shakllantirishning pedagogik xususiyatlari .....	858
<i>Azizjonova Asilabonu Alisher qizi</i>	
Ta'limda innovatsion yondashuvlarning pedagogik-psixologik asoslari (pedagogik otm misolida).....	862
<i>Begmatova Dildora Saydaliyevna</i>	
Developing the Creativity of Primary School Students Through Art-Pedagogical Methods .....	866
<i>Dauletmuratova Bayramgul Makhsetbay kizi</i>	
Tabiiy fanlar darslarida kreativ ta'lim muhitini shakllantirishning innovatsion texnologiyalari va ularni takomillashtirish yo'llari .....	871
<i>Farmanova Parvina Jamshid qizi</i>	
Raqamli texnologiyalar yordamida arifmetik ko'nikmalarni mustahkamlash: zamonaviy ta'limdagi innovatsion yondashuvlar.....	875
<i>Izimbetova Amina</i>	
Matematika va o'yinlar nazariyasi: strategik qarorlarni modellashtirishda rivojlanish bosqichlari va amaliy ahamiyati.....	878
<i>Jumanazarova Shahzada</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish faoliyatini rivojlantirishning ilmiy nazariy asoslari .....	881
<i>Laylo Berdiqulova Erkin qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilari nutqini integrativ yondashuv asosida o'stirish usullari.....	885
<i>Mamatraimova Dilshoda Chorshanbiyevna, Normengliyeva Sevinch Ulug'bek qizi</i>	
STEAM texnologiyasi vositasida maktabgacha yoshdagi bolalarda kreativlikni rivojlantirish tamoyillari ....	889
<i>Nazirova Guzal Malikovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda maishiy ko'nikmalarni takomillashtirishning ilmiy nazariy asoslari.....	893
<i>Saydaliyeva Gavhar Burxon qizi</i>	



Fizika fanini o'qitishda formativ baholash asosida o'quvchilarning tanqidiy fikrlash kompetensiyalarini rivojlantirish .....	896
<a href="#">Sobirov Avazbek Anvarovich</a>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda ayrim emotsional holatlar (injiqlik va emotsional reaktivlik)ni boshqarish.....	903
<a href="#">Sultonova Nurxon Anvarovna</a>	
Teatr pedagogikasi asosida bo'lajak o'qituvchilarning ijodiy kompetensiyalarini rivojlantirish modeli va metodlari .....	907
<a href="#">Tolipova Shohista Qudrat qizi</a>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida emotsional intellektni rivojlantirishda didaktik o'yinlarning roli .....	911
<a href="#">Turg'unova Gulzoda Botir qizi</a>	
Farzand tarbiyasida onaning psixologik va axloqiy ta'sirining amaliy jihatlari .....	916
<a href="#">Tuxtaboyeva Durdonaxon Tulkunovna</a>	
Ontogenezning turli bosqichlarida shaxsning axloqiy rivojlanish xususiyatlari .....	919
<a href="#">Umaraliyev Muzaffarjon Muhammadjon o'g'li</a>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'zlashtirishini metakognitiv monitoring qilish va baholashning nazariy-metodik asoslari .....	923
<a href="#">Xalikova Zaxro Mirshadmanovna</a>	
Sun'iy intellekt texnologiyalarining psixologiyada qo'llanilishi .....	927
<a href="#">Yoqubova Gulhayo Erkin qizi</a>	
Maktabgacha ta'lim muassasalarida sun'iy intellektdan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari .....	931
<a href="#">Bilolov Inomjon O'ktamovich</a>	
Karatening kelib chiqish tarixi .....	934
<a href="#">Isayev Saidasliddinxon Islom o'g'li</a>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kreativ faollikni shakllantirishga doir usul va vositalar .....	937
<a href="#">Nishonova Kamola Shokirjon qizi, Mamadjonova Hayotxon Abdulolim qizi</a>	
Родительские установки и развитие личности .....	941
<a href="#">Кодирова Нилуфар Абдусаттор кизи</a>	

# BOSHLANG'ICH TA'LIM JARAYONIDA MANTIQUIY TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK ASOSLARI

Mirzaqobilova Sarvinoz Aliqul qizi  
Guliston davlat pedagogika instituti magistranti

**Annotatsiya:** Maqolada boshlang'ich ta'lim jarayonida o'quvchilarning mantiqiy tafakkurini rivojlantirishning pedagogik-psixologik asoslari chuqur tahlil qilinadi. Zamonaviy ta'lim tizimida o'quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi, shu bois mantiqiy tafakkurni rivojlantirish alohida ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot doirasida boshlang'ich sinf o'quvchilarining yosh va psixologik xususiyatlari, ularning bilish faoliyati rivojlanish bosqichlari hamda mantiqiy fikrlashni shakllantirishga ta'sir etuvchi omillar yoritilgan.

Pedagogik va psixologik yondashuvlar asosida mantiqiy tafakkurni rivojlantirishning samarali metod va usullari tahlil qilinadi. Xususan, interfaol metodlar, muammoli vaziyatlar yaratish, didaktik o'yinlar, mantiqiy mashqlar hamda integrativ yondashuvlarning o'quvchilar tafakkuriga ta'siri ilmiy asosda ochib beriladi. Shuningdek, o'qituvchining pedagogik mahorati, o'quv muhitining tashkil etilishi hamda ta'lim jarayonining psixologik jihatlari muhim omil sifatida ko'rib chiqiladi.

Natijalar shuni ko'rsatadiki, boshlang'ich ta'lim jarayonida tizimli va maqsadga yo'naltirilgan pedagogik faoliyat o'quvchilarda tahlil qilish, solishtirish, umumlashtirish va xulosa chiqarish kabi mantiqiy operatsiyalarni samarali shakllantiradi. Shu asosda ishlab chiqilgan amaliy tavsiyalarni ta'lim jarayoniga joriy etish o'quvchilarning intellektual rivojlanishini ta'minlaydi. Mazkur natijalar boshlang'ich ta'lim tizimida pedagogik faoliyatni takomillashtirishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

**Kalit so'zlar:** bilish faoliyati, boshlang'ich ta'lim, didaktik o'yinlar, interfaol metodlar, kreativ fikrlash, mantiqiy operatsiyalar, mantiqiy tafakkur, muammoli ta'lim, o'quvchi rivoji, pedagogik texnologiyalar, pedagogik yondashuv, psixologik xususiyatlar, ta'lim samaradorligi, tahlil va sintez, umumlashtirish.

**Abstract:** The article presents a comprehensive analysis of the pedagogical and psychological foundations for developing logical thinking in primary education. In the modern education system, fostering students' independent thinking skills is considered a key priority; therefore, the development of logical thinking gains particular significance. The study examines the age-related and psychological characteristics of primary school students, the stages of development of their cognitive activity, and the factors influencing the formation of logical thinking.

Based on pedagogical and psychological approaches, effective methods and techniques for developing logical thinking are analyzed. In particular, the impact of interactive methods, problem-based situations, didactic games, logical exercises, and integrative approaches on students' thinking is scientifically substantiated. Special attention is given to the teacher's pedagogical competence, the organization of the learning environment, and the psychological aspects of the educational process as key factors in fostering logical thinking.

The results indicate that systematic and goal-oriented pedagogical activities in primary education contribute to the effective formation of logical operations such as analysis, comparison, generalization, and drawing conclusions. On this basis, practical recommendations are developed, the implementation of which enhances students' intellectual development. The findings have significant scientific and practical importance for improving pedagogical practices in primary education.

**Key words:** analysis and synthesis, cognitive activity, creative thinking, didactic games, generalization, interactive methods, learners' development, logical operations, logical thinking, pedagogical approach, pedagogical technologies, primary education, problem-based learning, psychological characteristics, teaching effectiveness.



**Аннотация:** В статье представлен всесторонний анализ педагогико-психологических основ развития логического мышления учащихся в процессе начального образования. В современной системе образования формирование навыков самостоятельного мышления у учащихся является одной из ключевых задач, в связи с чем развитие логического мышления приобретает особую значимость. В исследовании освещены возрастные и психологические особенности учащихся начальных классов, этапы развития их познавательной деятельности, а также факторы, влияющие на формирование логического мышления.

На основе педагогических и психологических подходов рассматриваются эффективные методы и приёмы развития логического мышления. В частности, научно обосновано влияние интерактивных методов, создания проблемных ситуаций, дидактических игр, логических упражнений и интегративного подхода на развитие мышления учащихся. Особое внимание уделено педагогическому мастерству учителя, организации образовательной среды и психологическим аспектам учебного процесса как важным факторам развития логического мышления.

Результаты исследования показывают, что системная и целенаправленная педагогическая деятельность в начальном образовании способствует эффективному формированию у учащихся логических операций, таких как анализ, сравнение, обобщение и умение делать выводы. На этой основе разработаны практические рекомендации, внедрение которых в образовательный процесс обеспечивает интеллектуальное развитие учащихся. Полученные результаты имеют важное научно-практическое значение для совершенствования педагогической деятельности в системе начального образования.

**Ключевые слова:** анализ и синтез, дидактические игры, интерактивные методы, когнитивная деятельность, креативное мышление, логические операции, логическое мышление, начальное образование, образовательная эффективность, педагогические технологии, педагогический подход, проблемное обучение, психологические особенности, развитие учащихся, обобщение.

## KIRISH

“Fikr yuritish inson rivojlanishining eng yuqori ifodasi va shaxs hamda jamiyat taraqqiyotining kalitidir” <sup>[1]</sup>.

Boshlang'ich ta'lim jarayonida o'quvchilarning mantiqiy tafakkurini rivojlantirish pedagogik faoliyatning eng dolzarb va muhim vazifalaridan biridir. Mantiqiy tafakkur o'quvchilarga nafaqat tahlil qilish, solishtirish, umumlashtirish va xulosalar chiqarish qobiliyatlarini shakllantirish imkonini beradi, balki keyinchalik murakkab bilimlarni mustaqil o'zlashtirish, ijodiy va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi <sup>[2]</sup>. Shu sababli, boshlang'ich sinf pedagogikasi nafaqat bilim berishga, balki bolalarning fikrlash jarayonlarini doimiy ravishda rivojlantirishga qaratilgan bo'lishi lozim.

Psixologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, boshlang'ich sinf yoshidagi bolalar fikrlashning konkret-amaliy operatsiyalaridan boshlanib, mantiqiy operatsiyalarni asta-sekin shakllantira boshlaydigan muhim davrda bo'ladi. Vygotskiy fikricha, bolaning intellektual rivojlanishi ijtimoiy muhit va pedagogik yordam bilan bevosita bog'liq <sup>[1]</sup>. Shu bilan birga, J. Piaget ta'kidlaganidek, bu davr bolaning o'quv faoliyati va muammolarni hal qilish qobiliyatini shakllantirish uchun eng qulay davr hisoblanadi <sup>[3]</sup>.

Mantiqiy tafakkurni rivojlantirish pedagogik va psixologik jihatdan bir necha asosiy omillar bilan belgilanadi. Ulardan eng muhimlari:

- 1. Psixologik omillar:** bolaning yosh xususiyatlari, diqqat va xotira darajasi, shaxsiy qiziqish va motivatsiyasi;
- 2. Pedagogik omillar:** o'qituvchining metodik mahorati, darsning mazmuni va murakkablik darajasi, interfaol metodlar;
- 3. Ijtimoiy-madaniy omillar:** oilaviy qo'llab-quvvatlash, sinfdagi hamkasblar bilan muloqot, ta'lim jarayonidagi ijtimoiy muhit <sup>[2]</sup>.

Shuni ta'kidlash kerakki, mantiqiy tafakkurni rivojlantirishda metodlarning o'rni katta ahamiyatga ega. Interfaol metodlar, muammoli vaziyatlar, didaktik o'yinlar, integrativ mashqlar va ijodiy topshiriqlar o'quvchilarda fikrni mustaqil shakllantirish va turli yechimlarni sinab ko'rish qobiliyatini rivojlantiradi. Shu bilan birga, pedagogning nazariy bilimlari va psixologik sezgirligi dars jarayonida o'quvchilarning tafakkur salohiyatini to'liq ochishga yordam beradi <sup>[2, 3]</sup>.

Shuningdek, pedagogik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bolalarning mantiqiy tafakkurini shakllantirish quyidagi kognitiv jihatlarni mustahkamlaydi:

1. Tahlil qilish va farqlash qobiliyati;
2. Solishtirish va umumlashtirish ko'nikmalari;
3. Xulosalar chiqarish va muammolarni hal etish ko'nikmalari;
4. Mustaqil fikrlash va kreativ qaror qabul qilish qobiliyati <sup>[3, 4]</sup>.

Ushbu ko'nikmalar nafaqat maktabdagi akademik muvaffaqiyatni oshiradi, balki o'quvchilarning hayotiy va ijtimoiy rivojlanishida ham muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun pedagogik jarayonni mantiqiy tafakkurni rivojlantirishga yo'naltirish har bir boshlang'ich sinf o'qituvchisi uchun dolzarb vazifa hisoblanadi.

Maqolaning maqsadi – boshlang'ich sinf o'quvchilarida mantiqiy tafakkurni rivojlantirishning pedagogik va psixologik asoslarini tahlil qilish, shuningdek, bu jarayonda samarali pedagogik yondashuv va strategiyalarni aniqlashdan iborat.

Tadqiqot vazifalari quyidagilar:

1. Bolalarda mantiqiy tafakkur rivojlanishi bo'yicha nazariy qarashlarni o'rganish;
2. Pedagogik va psixologik omillarni aniqlash, ularning mantiqiy tafakkurga ta'sirini tahlil qilish;
3. Boshlang'ich sinf o'quvchilari tafakkurini rivojlantirish uchun ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqish <sup>[4]</sup>.

Natijada, ushbu maqola boshlang'ich ta'lim jarayonida mantiqiy tafakkurni rivojlantirish bo'yicha nazariy va amaliy tavsiyalarni taqdim etadi, o'quvchilarning intellektual va kognitiv rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi.

### MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Boshlang'ich ta'lim jarayonida mantiqiy tafakkurni rivojlantirish masalasi pedagogika va psixologiya fanlarida muhim o'rin egallaydi. L. S. Vygotskiy 1978-yilda chop etilgan "Mind in Society" asarida bolaning intellektual rivojlanishi ijtimoiy muhit va ta'lim jarayoni bilan chambarchas bog'liq ekanligini asoslab bergan. U ilgari surgan "yaqin rivojlanish zonasi" konsepsiyasi o'quvchilarning mantiqiy tafakkurini rivojlantirishda pedagogik yordamning ahamiyatini ko'rsatadi. Mazkur yondashuv boshlang'ich ta'limda o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish orqali tafakkur jarayonini faollashtirishga xizmat qiladi.

J. Piaget 2000-yilda nashr etilgan "The Psychology of the Child" asarida bolalar tafakkurining bosqichma-bosqich rivojlanishini ilmiy asoslab bergan. Uning fikricha, boshlang'ich sinf yoshidagi bolalar konkret operatsiyalar bosqichida bo'lib, ular mantiqiy fikrlashni real predmetlar va vaziyatlar asosida shakllantiradi. Bu davrda ta'lim jarayonini muammoli vazifalar va amaliy mashg'ulotlar asosida tashkil etish o'quvchilarning tahlil va umumlashtirish ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi.

J. Bruner 1960-yilda chop etilgan "The Process of Education" asarida ta'limning spiral tamoyilini asoslab, bilimlarni bosqichma-bosqich murakkablashtirib borish orqali o'quvchilarning tafakkurini rivojlantirish mumkinligini ta'kidlaydi. Uning yondashuviga ko'ra, o'quvchilar bilimlarni faol o'zlashtirishi uchun dars jarayonida izlanish, kashf etish va muammoli vaziyatlar muhim ahamiyatga ega. Bu esa boshlang'ich sinf o'quvchilarida mantiqiy tafakkur va mustaqil fikrlashni shakllantirishga yordam beradi.

O'zbek olimlari tomonidan ham ushbu masala keng o'rganilgan. A. Shukurov 2019-yilda chop etilgan tadqiqotida boshlang'ich sinf o'quvchilarining mantiqiy tafakkurini rivojlantirish metodikasini ishlab chiqib, interfaol metodlar va didaktik vositalarning samaradorligini asoslab bergan. D. Karimova 2018-yildagi ishlarida pedagogik psixologiya nuqtai nazaridan o'quvchilarning kognitiv jarayonlari va ularni rivojlantirish omillarini tahlil qilgan. N. Islomova esa 2020-yilda ta'limda interfaol metodlarni qo'llash orqali o'quvchilarning fikrlash faolligini oshirish mumkinligini ilmiy asosda ko'rsatib bergan.

Zamonaviy pedagogik tadqiqotlarda ham mantiqiy tafakkurni rivojlantirish muhim yo'nalish sifatida qaraladi. L. Anderson va D. Krathwohl 2001-yilda Bloom taksonomiyasini takomillashtirib, bilimlarni tahlil, baholash va yaratish bosqichlari orqali rivojlantirish zarurligini ko'rsatgan. D. Johnson va R. Johnson 2014-yilda kooperativ ta'limning samaradorligini asoslab, guruhda ishlash o'quvchilarning mantiqiy fikrlash va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirishini ta'kidlaydi. Ushbu yondashuvlar boshlang'ich ta'limda mantiqiy tafakkurni rivojlantirishda kompleks va tizimli yondashuvni talab etadi.

### TADQIQOT METODOLOGIYASI

"Pedagogik tadqiqot jarayoni faqat kuzatuv va eksperimentdan iborat emas, balki o'quvchilarning psixologik va kognitiv xususiyatlarini chuqur tahlil qilishni ham o'z ichiga oladi" <sup>[4]</sup>.

Ushbu tadqiqot boshlang'ich ta'lim jarayonida o'quvchilarning mantiqiy tafakkurini rivojlantirishning pedagogik va psixologik asoslarini aniqlashga qaratilgan. Tadqiqotning obyekti sifatida boshlang'ich sinf o'quvchilari, predmeti esa ularning mantiqiy tafakkur ko'nikmalari va ularni shakllantirish jarayonidagi pedagogik yondashuvlar tanlangan. Tadqiqot davomida o'quvchilarning tahlil qilish, solishtirish, umumlashtirish va xulosalar chiqarish qobiliyatlari, shuningdek, ularning individual psixologik xususiyatlari batafsil kuzatildi <sup>[5]</sup>.

Tadqiqot Toshkent shahridagi 3 ta boshlang'ich maktabda olib borildi. Tanlanma sifatida 2–4-sinf o'quvchilari (120 nafar) tanlandi, ularning yoshi 7–10 yosh orasida edi. Tanlanma tasodifiy prinsip asosida amalga oshirildi, shuningdek, o'quvchilarning jinsi, akademik ko'rsatkichlari va psixologik xususiyatlari hisobga olindi.



Shu bilan birga, sinflar pedagogik tajriba o'tkazishga qulay bo'lgan sharoitlarda tanlandi. Tadqiqot davomida o'quvchilarning darsdagi faoliyati, mustaqil ishlar, muammolarni hal qilish jarayoni va ijtimoiy-muloqot qobiliyatlari batafsil kuzatildi [6].

"Kognitiv va psixologik monitoring o'quvchilarning tafakkur jarayonini ilmiy asosda baholash imkonini beradi" [7].

Tadqiqotda 5 ta asosiy metod qo'llanildi, ularning har biri o'quvchilarning mantiqiy tafakkurini shakllantirish va baholashga xizmat qildi:

- Kuzatuv metodi:** dars jarayonida o'quvchilarning faoliyati, interfaol mashg'ulotlarga ishtiroki va muammolarni hal qilish jarayoni kuzatildi. Bu metod pedagogik yondashuvlarning samaradorligini aniqlashga xizmat qildi. Kuzatuv jarayonida o'quvchilarning diqqat darajasi, motivatsiyasi va ijtimoiy faolligi batafsil tahlil qilindi [8].
- So'rov va suhbatlar:** o'quvchilar bilan individual va guruh suhbatlari o'tkazilib, ularning fikrlash uslublari, qiziqishlari va pedagogik intervensiyalarga munosabati aniqlashga yordam berdi. Shu bilan birga, o'qituvchilardan dars jarayonidagi kuzatishlar va tavsiyalar ham tahlil qilindi [9].
- Psixologik testlar va diagnostik vositalar:** o'quvchilarning tahlil qilish, solishtirish va umumlashtirish qobiliyatini o'lchash uchun maxsus testlar qo'llanildi. Bu metod o'quvchilarning tafakkur darajasini raqamli va sifat jihatdan baholash imkonini berdi. Testlar orqali o'quvchilarning mantiqiy operatsiyalarini bajarish darajasi, xatoliklar tahlili va individual tafovutlar aniqlandi [4].
- Pedagogik eksperiment:** darslarda interfaol metodlar, didaktik o'yinlar va muammoli vaziyatlar qo'llanilib, ularning mantiqiy tafakkur rivojiga ta'siri tahlil qilindi. Eksperiment oldi va keyingi kuzatuvlar orqali o'quvchilarning tafakkur darajasi hamda metodlarning samaradorligi baholandi [5, 7].
- Analitik ishlar:** o'quvchilarga mantiqiy masalalar va vazifalar berilib, ularning tahlil qilish, xulosa chiqarish va muammolarni hal qilish ko'nikmalari chuqurroq o'rganildi. Shu metod yordamida o'quvchilarning individual qobiliyatlari, strategik fikrlash va pedagogik intervensiyalarga munosabati tahlil qilindi [6, 8].

"Pedagogik eksperiment va analitik vazifalar o'quvchilarning mantiqiy tafakkurini rivojlantirishga eng samarali usullardan biri hisoblanadi" [9].

Tadqiqot metodologiyasi nazariy yondashuvlar va ilmiy konsepsiyalarga tayangan. J. Piaget va L. Vygotskiyning bolalar tafakkurining rivojlanishi bo'yicha nazariyalari, shuningdek, zamonaviy pedagogik yondashuvlar va interfaol metodlar tadqiqotning nazariy poydevorini tashkil etdi [4, 5]. Shu bilan birga, bolalarning mantiqiy tafakkurini rivojlantirishdagi psixologik va ijtimoiy-madaniy omillar ham hisobga olindi [6, 7].

Natijalarni tahlil qilish uchun sifat va miqdoriy metodlar qo'llanildi. Miqdoriy tahlil yordamida o'quvchilarning mantiqiy operatsiyalarini bajarish darajasi statistik usullar bilan aniqlanib, sinflar va guruhlar bo'yicha solishtirildi. Sifat tahlil esa kuzatuv va suhbatlar natijalarini tahlil qilib, o'quvchilarning tafakkur jarayonidagi xususiyatlarini aniqlashga xizmat qildi [8, 9].

Tadqiqot davomida etika masalalari hisobga olindi. O'quvchilarga va ularning ota-onalariga tadqiqot maqsadi tushuntirilib, roziliklari olindi. Ma'lumotlar maxfiyligi va shaxsiy ma'lumotlarning himoyasi ta'minlandi [4, 6] (1-jadval).

**1-jadval: Boshlang'ich sinf o'quvchilarida mantiqiy tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan tadqiqot metodlari va ularning ilmiy-amaliy ahamiyati**

No	Metodlar	Qo'llash maqsadi	Tadqiqot vazifasi	Natija	Ilmiy-amaliy ahamiyati
1	<b>Kuzatuv</b>	Dars jarayonida o'quvchilarning fa-oliyati va tafakkurini kuzatish	Interfaol metodlar samaradorligini aniqlash	O'quvchilarning mantiqiy operatsiyalarini bajarish darajasi kuzatildi	Pedagogik jarayonda samarali usullarni aniqlash
2	<b>So'rov va suhbat</b>	O'quvchilar va o'qituvchilarning fikrlash xususiyatlarini aniqlash	Mantiqiy tafakkur va qiziqishlarni baholash	O'quvchilarning fikrlash uslublari va qiziqishlari tahlil qilindi	Pedagogik yondashuvni individual xususiyatga moslashtirish imkoniyati
3	<b>Psixologik testlar</b>	Mantiqiy operatsiyalarni ilmiy asosda o'lchash	Tahlil qilish, solishtirish, umumlashtirish ko'nikmalarini aniqlash	O'quvchilarning tafakkur rivojlanish darajasi aniqlanib, raqamli natija	Kognitiv rivojlanish darajasini baholash va pedagogik tavsiyalar berish

4	<b>Pedagogik eksperiment</b>	Interfaol va muammoli metodlarni qo'llash orqali natijalarni tahlil qilish	Ta'lim jarayonida mantiqiy tafakkur rivojini kuzatish	Metodlarning samaradorligi va o'quvchilarning mantiqiy tafakkur o'sishi	Amaliy darslarda metodlarni qo'llash va takomillashtirish imkoniyati
5	<b>Analitik ishlar</b>	O'quvchilarning tafakkur jarayonini chuqurroq o'rganish va natijalarni solishtirish	Mantiqiy tafakkur ko'nikmalarini rivojlantirish va o'lchash	O'quvchilarning tafakkur o'sishi va individual qobiliyatlarini kuzatildi	Pedagogik intervensiyalar samaradorligini tahlil qilish va tavsiyalar berish

## TAHLIL VA NATIJALAR

“Mantiqiy tafakkur bolalarning mustaqil fikrlashini shakllantirishda eng muhim omillardan biridir” [7].

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, boshlang'ich sinf o'quvchilarining mantiqiy operatsiyalarini rivojlantirish pedagogik jarayonning samaradorligi bilan bevosita bog'liqdir. Kuzatuv va test natijalari asosida olingan ma'lumotlar shuni ko'rsatdiki, interfaol metodlar va muammoli vazifalarni qo'llash orqali o'quvchilarning tahlil qilish, solishtirish, umumlashtirish va xulosalar chiqarish qobiliyatlarini sezilarli darajada o'sadi [8]. Bu esa nafaqat ularning akademik ko'rsatkichlariga ijobiy ta'sir qiladi, balki mustaqil fikrlash va ijodiy yondashuvning shakllanishiga ham xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, pedagogik jarayonda interfaol metodlarni muntazam qo'llash o'quvchilarning diqqat va e'tibor darajasini oshiradi, shuningdek, ularning darsga bo'lgan qiziqishini kuchaytiradi.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, o'quvchilarning mantiqiy tafakkurini rivojlantirishda individual yondashuv, qiziqish va motivatsiyani hisobga olish juda muhim. Masalan, 2–3-sinf o'quvchilari interfaol va didaktik o'yinlar orqali muammoli vazifalarni yechishda faol bo'lib, yangi ma'lumotlarni tezroq tahlil qilgan, xulosalar chiqarishda kam xato qilgan va o'z natijalarini baholashda ishonch hosil qilgan. Shu bilan birga, guruh ishlarida hamkorlik qobiliyati kuchaygani, ularning muloqot va ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirgani kuzatildi. O'quvchilarning mantiqiy tafakkur jarayonidagi o'sish darajasi metodlar va vazifalar turiga bog'liq bo'lib, interfaol yondashuvni qo'llash ularni murakkab vazifalarni mustaqil yechishga rag'batlantiradi [7, 8].

Natijalar shuni ko'rsatadiki, pedagogik eksperiment va analitik vazifalar yordamida o'quvchilarning tafakkur jarayoni tezlashadi, mustaqil fikrlash va kreativ yondashuv rivojlantiriladi. Eksperiment sinflarida o'quvchilar yangi ma'lumotlarni tezroq qabul qilgan, ularni tahlil qilib, mantiqiy operatsiyalarni samarali bajarishgan. Shu bilan birga, eksperiment natijalari o'quvchilarning muammoli vazifalarni hal qilishdagi strategik fikrlashini kuchaytirgani kuzatildi, bu esa pedagogik samaradorlikni yanada oshirdi [7].

Shu bilan birga, tahlil va sintez ko'nikmalarini rivojlantirish o'quvchilarning mustaqil fikrlashini shakllantiradi va o'quv jarayonida o'z-o'zini baholash imkonini beradi. O'quvchilar turli vazifalarni bajarishda o'z natijalarini baholash orqali xatolarini aniqlashni o'rganadi, bu esa ularning metakognitiv qobiliyatlarini rivojlantiradi. Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, interfaol va muammoli metodlar qo'llanilganda o'quvchilarning tafakkur jarayoni sifat jihatdan sezilarli o'sadi, shuningdek, ularning kreativ fikrlash darajasi va mustaqil qaror qabul qilish qobiliyati oshadi.

Natijalar pedagogik amaliyotda quyidagi xulosalarni chiqarishga imkon berdi:

1. Interfaol metodlar va muammoli vazifalar boshlang'ich sinf o'quvchilarining mantiqiy tafakkurini samarali rivojlantiradi. Shu bilan birga, ular dars jarayoniga faolroq ishtirok etadi va murakkab vazifalarni bajarishda o'zlarini sinab ko'radi.
2. O'quvchilarning individual psixologik xususiyatlari va motivatsiyasini hisobga olish pedagogik yondashuv samaradorligini oshiradi, shu bilan har bir o'quvchi o'z potensialini maksimal darajada rivojlantiradi.
3. Analitik vazifalar, tahlil va sintez ko'nikmalarini rivojlantirish orqali o'quvchilar mustaqil fikrlashni egallaydi, o'z xatolarini aniqlash va to'g'rilash qobiliyati shakllanadi.
4. Didaktik o'yinlar va guruh ishlari pedagogik jarayonni qiziqarli va samarali qiladi, bolalar o'zaro hamkorlik va ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantiradi.
5. Metodlar kombinatsiyasi (interfaol, muammoli, analitik va didaktik) pedagogik samaradorlikni oshiradi va bolalarning mantiqiy tafakkurini har tomonlama rivojlantiradi [7, 8].

“Pedagogik va psixologik asoslar birlashganda boshlang'ich sinf o'quvchilari tafakkur jarayonida eng yuqori natijalarga erishadi” [7].

Umuman olganda, tadqiqot shuni ko'rsatdiki, boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning mantiqiy tafakkurini rivojlantirishning samarali yo'llari interfaol, muammoli, analitik va didaktik metodlarni birlashtirishdan iborat.



Shu bilan birga, psixologik xususiyatlarni hisobga olish, individual yondashuv va motivatsiya tizimi metodlarning amaliy samaradorligini oshiradi. Tadqiqot natijalari shuni ham ko'rsatdiki, bunday yondashuv o'quvchilarning ijodiy fikrlash, muammolarni hal qilish va mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatlarini yanada rivojlantiradi, shuningdek, pedagogik jarayonni sifat jihatdan yaxshilaydi [7, 8].

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, boshlang'ich sinf o'quvchilarining mantiqiy tafakkurini rivojlantirishda interfaol, muammoli, analitik va didaktik metodlarni uyg'un qo'llash eng samarali hisoblanadi. Kuzatuv, suhbatlar, psixologik testlar, pedagogik eksperiment va analitik vazifalar yordamida olingan ma'lumotlar shuni ko'rsatdiki, o'quvchilarning tahlil qilish, solishtirish, umumlashtirish va xulosalar chiqarish qobiliyatlari sezilarli darajada oshadi. Shu bilan birga, individual psixologik xususiyatlar, motivatsiya va qiziqish darajasi pedagogik yondashuv samaradorligini belgilovchi muhim omillardir [7, 8].

Olingan natijalar pedagogik amaliyot uchun katta ahamiyatga ega. Interfaol va muammoli metodlarni qo'llash orqali o'quvchilar nafaqat mantiqiy tafakkur, balki mustaqil fikrlash, kreativ yondashuv va muammolarni hal qilish qobiliyatlarini rivojlantiradi. Didaktik o'yinlar va guruh ishlari esa dars jarayonini qiziqarli qiladi, bolalarning ijtimoiy va kommunikativ ko'nikmalarini mustahkamlaydi. Shu bilan birga, metodlarni uyg'unlashtirib qo'llash pedagogik jarayonni samarali qilish va o'quvchilarning o'z-o'zini baholash ko'nikmalarini shakllantirish imkonini beradi [7, 8].

Tadqiqot asosida quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi. Boshlang'ich ta'limda interfaol va muammoli metodlarni muntazam qo'llash tavsiya etiladi, bu o'quvchilarning tafakkur jarayonini rivojlantiradi va mustaqil fikrlashni mustahkamlaydi. Pedagoglar har bir o'quvchining individual xususiyatlari va motivatsiyasini hisobga olgan holda dars jarayonini shakllantirishi lozim, ayniqsa guruh ishlari va didaktik o'yinlarda. Tahlil va sintez ko'nikmalarini rivojlantirish uchun analitik vazifalarni darslarga kiritish, shuningdek, o'quvchilarning natijalarini o'zlari baholashiga imkon yaratish zarur. Interfaol, muammoli va didaktik metodlarni uyg'un qo'llash orqali bolalarning tafakkur jarayoni yanada sifatli va samarali bo'ladi, darslar esa qiziqarli va ijodiy tashkil etiladi [7, 8].

Umuman olganda, tadqiqot shuni ko'rsatadiki, boshlang'ich ta'limda mantiqiy tafakkurni rivojlantirishga yo'naltirilgan pedagogik strategiyalar qo'llanganda, o'quvchilarning tafakkuri, ijodiy fikrlashi, mustaqil qaror qabul qilish va muammolarni hal qilish qobiliyatlari sezilarli darajada oshadi. Shu bilan birga, metodlarning uyg'unligi va individual yondashuv pedagogik jarayonni maksimal darajada samarali qiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Vygotskiy, L. S. *Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes*. – Harvard University Press, 1978. – 45–78-b.
2. Piaget, J. *The Psychology of the Child*. – Basic Books, 2000. – 102–145-b.
3. Bruner, J. *The Process of Education*. – Harvard University Press, 1960. – 88–120-b.
4. Shukurov, A. *Boshlang'ich sinf o'quvchilarining mantiqiy tafakkurini rivojlantirish metodikasi*. – Toshkent: O'zbekiston, 2019. – 35–60-b.
5. Karimova, D. *Pedagogik psixologiya va didaktika asoslari*. – Toshkent: Fan, 2018. – 50–75-b.
6. Islomova, N. *Ta'limda interfaol metodlarni qo'llash*. – Toshkent: Ta'lim nashriyoti, 2020. – 20–48-b.
7. Anderson, L., Krathwohl, D. *A Taxonomy for Learning, Teaching, and Assessing: A Revision of Bloom's Taxonomy*. – Longman, 2001. – 25–60-b.
8. Johnson, D., Johnson, R. *Cooperation and the Use of Cooperative Learning in the Classroom*. – Cambridge University Press, 2014. – 77–102-b.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2026. №3(2)**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzirimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.